

Sharobidinova Nargiza Gofurjon qizi

Andijon chet tillari instituti

Xorijiy til fakulteti

Ingiliz tili adabiyoti yo'nalishi

2-bosqich 202-guruhi magistranti

Ilmiy rahbar: Isroilova Dildoraxon Muxtarovna

Annotatsiya. Hozirgi kun tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarning yuzaga kelishi, matn muammosining o'r ganilishi bilan bog'liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo`nalishlar qo`lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko`rmoqdalar. Ushbu maqolada konsept tushunchasi va konsept tavsifiga lingvomadaniy yondashuv keng yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Konsept, lingvomadaniyat, semantika, tilshunoslik.

Til va madaniyat har qanday millatning millat ekanligini tasdiqlovchi asosiy vositadir. Bu ikki tushuncha ajralmas va muntazam bir-birini taqozo etadi. Til o`zining har jabhasida madaniyatni aks etadi, madaniyat ham shu o`rinda tilsiz mukammal namoyon bo`la olmaydi.

Hozirgi kun tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarning yuzaga kelishi, matn muammosining o'r ganilishi bilan bog'liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika va lingvomadaniyatshunoslik kabi qator yo`nalishlar qo`lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko`rmoqdalar.

Bundan maqsad –nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o`rin tutishini aniqlashdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e`tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo`lgan lingvomadaniy masalalari ko`pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilib kelinmoqda.

O`zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo`nalishda qator ishlar olob borilmoqda. Chunonchi, o`zbek tilshunoslida lingvomadaniyatshunoslikning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi, kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ilmiy tadqiqot namunalari sifatida A.Nurmonovning "O`zbek tilida lingvokulturologik yo`nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N.Saidraimovaning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar" nomli maqolalarini aytishimiz mumkin. Mazkur ishlarda lingvomadaniyatshunoslik fanining mohiyati, predmeti va obyekti masalalari o`rganilgan.

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

“Lingvokulturologiya” atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliyava, V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida ko`rindi. Lingvomadaniyatshunoslikning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini ta`kidlaydilar.

Lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda bir necha yo`nalishlarda namoyon bo`ladi.

1. Lingvomadaniyatshunoslik yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni o`z ichiga oladigan alohida sotsial guruh.

2. Diaxronik lingvomadaniyatshunoslik. Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o`tish vaqtining o`zgarishlarini o`rganadi.

3. Qiyosi lingvomadaniyatshunoslik. Lingvomadaniyatda paydo bo`ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug`ullanadi.

4. Tavsifiy lingvomadaniyatshunoslik. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K.Golovanivskaning “Rus tilida so`zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obyekti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar ; taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur va boshqalar olingan.

5. Lingvomadaniy leksikografiya. Lingvo o`lkashunoslik lug`atlarni tuzish bilan shug`ullanadi. Lingvokulturologiyaning bu yo`nalishi hozirgi kunda boshqa yo`nalishlarga qaraganda jadal rivojlanmoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G.Maltsevaning lingvo`lkashunoslik lug`atini keltirishimiz mumkin. Bu lug`at 25 bobdan iboratdir.

XX –asrning 60-yillarida kognitiv tilshunoslik tilning semantik aspektiga o`z ta`sirini o`tkaza boshladi. Bu kompleks aspect inson tili va mental faoliyatning o`zarot ta`siri, ya`ni inson tili va bilish faoliyatini o`rganuvchi fandir. Kognitiv tilshunoslikning asoschisi Amerikalik lingvist va psixolog Noam Xomskiy hisoblanadi. U bilish nazariyasiga ijodiy yondashadi va kognisiya tushunchasini quyidagi uch asosiy masalalar bilan bog`laydi

1. Bilishning tabiatini

2. Inson ongida bilimlar sistemasining shakllanishi

3. Bilimni ma`lumotlar banki shaklida kompyuterda va zamonaviy tadqiqot texnologiyalarida qo`llash.

Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik tilni tushuncha nuqtai nazaridan o`rganadigan sohasi hisoblanadi. Bu tushunchalar aniq bir tilda ba`zan universal, ba`zan maxsus holda qo`llaniladi.

Shu xususiyati bilan semantikaga o`xshab ketadi, lekin psixolingvistikadan farq qiladi. Kognitiv tilshunoslik uchta asosiy holatni kuzatish bilan xarakterlanadi. Olimlarning aniqlashlaricha, kognitiv tilshunoslik ma`lumotlarni transformatsiyalash va kodlashda asosiy rol o`ynaydigan kognitiv mexanizm sifatida o`rganiladi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning va lingvomadaniyning asosiy atamalaridan biri bu-konseptdir.

U insonning tafakkur xususiyatlari va qurilishiga bog`liq bo`lgan muammolar bilan qiziquvchilarning diqqatini o`ziga tortib kelmoqda. Kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog`liqligini o`rganuvchi fandir. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalardan biri bo`lib, madaniyat va inson o`rtasidagi aloqa o`rnatuvchi elementdir. Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligi anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantic oralig'i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi. Konseptning o`zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi.

Birinchi bor konsept atamasini rus fanida 1928-yilda S.A.Askoldov qo`llagan. Olim konseptni ko`pgina noaniq predmetlar, harakatlar, voqeliklar, (rivojlanish konsepti, haqiqatgo`ylik, matematik konseptlar)ni fikrlash jarayonida o`rnini to`ldiruvchi tafakkur shakli deb izohlaydi. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagি tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o`zida aks ettiradigan birlikdir” deb ta`rif bergan.

Konsept tushunchasi deyarli barcha atoqli tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilingan. Ularning har biri bu termin yoki tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishiadi. Uni biron tushuncha haqida ideal, kulturologik, shartli, inson tasavvuridagi obrazlar (A.Vejbitskaya), mantiqiy kategoriya (Y.I.Stepanov), amaliy falsafadagi bir tushuncha (N.D.Aryutunova), ko`p qatlamlı tushuncha (V.I.Krasik) deb va boshqa olimlar tomonidan ham turlicha talqin qilingan.

Yuqorida qayd etilgan S.A.Askoldov fikri Y.S.Stepanovning bildirgan fikriga juda yaqin.

Yana birr us tilshunosi V.A.Maslova konsept ma`nosiga ko`p qirraligi tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o`ylanadigan, balki ular o`zlar his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o`z ichiga olishini ko`rsatadi. Konsept tuzilishida o`zgacha nuqtai nazar borligini ta`kidlaydi. Konsept markazida qadrilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik yotadi. Har bir konsept murakkab mental uyg`unligi, ma`noviy tuzilishdan tashqari insonni ifodalanayotgan obyektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o`z ichiga oladi, deb ta`kidlaydi.

Konsept haqidagi turli qarashlarni tahlil qilar ekanlar, olimlar aniq bir xulosaga keldilar: konsept-bu abstract nomlar turi emas, xalq tomonidan asrlar mobaynida to`planib kelingan bilim va malakalarni, ularni o`rganib chiqishning asosiy rakursi. “Konsept”-atamasi tilshunoslikda ham eski atama hisoblanadi. Hozirda tilshunoslikda konsept tushunchasiga juda katta e`tabor berib kelinmoqda. XX asrning 70-yillarida an`anaviy tilshunoslikda konsept atamasi o`zgacha chuqur izohlar talab qiladigan muammo sifatida qaralardi. Konsept tushunchasidan to`la huquqli foydalanish 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendof, G.Lakof, R.Langaskerlarning asarlarini

tarjima qilinishi bilan bog`liq. Aynan o`sha matnlarda odatda konseptualizatsiya, konseptual mohiyat atamalari uchrab turadi. Konsept tushunchasining lug`aviy ma`nosi ustida ham ko`pgina olimlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga mantiqiy kategoriya, amali falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor. Kognitiv atamalar lug`atida “konsept” atamasiga quyidagicha ta`rif beradi: Konsept –bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resusrlarining inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. “Konsept” atamasi zamonaviy tilshunoslikda u yoki bu leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qo`llaniladi. Kundalik ilmiy ijodda tez-tez konsept atamasi tushuncha bilan sinonim sifatida qo`llaniladi. “Konsept”-lotincha “conceptus” so`zidan olingan bo`lib “tushuncha” ma`nosini bildiradi. Konsept tushunchalar yig`indisidir. Biror predmet haqida aytilgan yoki bildirilgan har qanday fikrlar yig`indisi ham konseptni tashkil etadi. Konsept tushunchasiga so`nggi o`n yil ichida tilshunoslikda keng shakllangan.

Lingvistikaning yangi yo`nalishi – lingvomadaniyat til va madaniyat o`rtasidagi bog`liqlikni o`rganadi. Bu yo`nalishning o`zining shunday kategorial apparati mavjudki, uning markaziy obyekti konsept tushunchasi bo`lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. . Ахмадалиева Г. Teaching reading strategies in ELT //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 5/S. – С. 166-170.
2. Абдухалимова, С. (2022). THE CONCEPT AND CONTENT OF INTERCULTURAL DISCOURSE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 5(4).
3. Kuchkarova, Z. (2021). COMPARATIVE STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS VERBALIZING THE CONCEPT OF " WEDDING" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(2).
4. Kochkorova, Z. A. Q. (2021). Translation aspects of the verbalizers of the concept of " wedding". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 989- 994.
5. Kochkorova, Z. A. (2022). THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE VERBALIZERS OF THE CONCEPT OF “WEDDING” IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture, 2(6), 250-253.
6. Abdullayevna, K. N. (2022). Beauty Concept in English and Uzbek Languages. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 232-237.